



UDK: 413.13=943.75(045)

Ra'no SAYDULLAYEVA,
Dotsent, PhD, Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: rano.saydullayeva@mail.ru

F.f.d., professor X.Jabborova taqrizi asosida

VARIOUS APPROACHES TO DEFINING THE TERM «ONYM»

Annotation

This article examines various approaches to defining the key onomastic term «onym» in the history of linguistics. Seven principal approaches are identified and analysed: philosophical (J.S. Mill), logical (G. Frege), grammatical (A.A. Reformatsky), referential (A.V. Superanskaya), lexicographic (N.V. Podolskaya), communicative (V. Blanár), and terminological (S.V. Grinev-Grinevich). A comparative table is provided for each approach. It is demonstrated that a comprehensive definition of the onym must integrate referential, lexicographic and communicative dimensions. The findings are relevant to the ongoing normalisation of onomastic terminology in Uzbek linguistics.

Key words: Onym, proper name, onomastics, terminological definition, philosophical approach, referential approach, Superanskaya, Podolskaya, onomastic terminology, normalisation.

РАЗЛИЧНЫЕ ПОДХОДЫ К ОПРЕДЕЛЕНИЮ ТЕРМИНА «ОНИМ»

Аннотация

В статье рассматриваются различные подходы к определению ключевого ономастического термина «оним» в истории языкознания. Выявлены и проанализированы семь основных подходов: философский (Дж.С. Милль), логический (Г. Фреге), грамматический (А.А. Реформатский), референциальный (А.В. Суперанская), лексикографический (Н.В. Подольская), коммуникативный (В. Бланар) и терминологический (С.В. Гринев-Гриневич). По каждому подходу составлена сравнительная таблица. Показано, что комплексная дефиниция онима должна интегрировать референциальное, лексикографическое и коммуникативное измерения. Результаты актуальны для нормализации ономастической терминологии узбекского языкознания.

Ключевые слова: Оним, имя собственное, ономастика, терминологическая дефиниция, философский подход, референциальный подход, Суперанская, Подольская, ономастическая терминология, нормализация.

“ONIM” TERMINI TA'RIFIQA TURLI YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada asosiy onomastik termini bo'lgan “onim” ta'rifiga tilshunoslik tarixidagi turli yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Yettita asosiy yondashuv aniqlanib tahlil qilinadi: falsafiy (J.Mill), mantiqiy (G.Frege), grammatik (A.A.Reformatskiy), referensial (A.V.Superanskaya), leksikografik (N.V.Podolskaya), kommunikativ (V.Blanar) va terminologik (S.V.Grinev-Grinevich). Har bir yondashuv bo'yicha qiyosiy jadval beriladi. Onimning keng qamrovli ta'rifi referensial, leksikografik va kommunikativ o'lchamlarini birlashtirish lozimligi ko'rsatiladi. Natijalar o'zbek tilshunosligida onomastik terminologiyani tartibga solish uchun dolzarflik kasb etadi.

Kalit so'zlar: Onim, atoqli ot, onomastika, terminologik ta'rif, falsafiy yondashuv, referensial yondashuv, Superanskaya, Podolskaya, onomastik terminologiya, tartibga solish.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston strategiyasi” asarida milliy fan va ta'limni rivojlantirish, milliy merosni tiklash va xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash zarurligini alohida ta'kidlagan [1]. O'zbek tilshunosligi uchun bu vazifa terminologiyani xalqaro andozalarga muvofiq tizimlashtirish va tartibga solishni anglatadi. Onomastika sohasida esa bu masala ayniqsa dolzarbdir, chunki “onim” kabi onomastikaning markaziy tushunchalarining tizimli ta'rifi hali to'liq mustahkamlanmagan.

“Onim” termini hozirgi onomastik terminosistemaning asosiy tushunchasi hisoblanadi. Biroq bu atamaning ta'rifiga oid ilmiy adabiyotlarda yagona umumqabul qilingan yondashuv mavjud emas, ya'ni turli maktablar va davrlar “onim”ni turli xil tarzda talqin etganlar. Masalan, N.V.Podolskayaning “Rus onomastik terminologiyasi lug'ati” (“Словарь русской ономастической терминологии”) (1988) da “onim” 514 termindan iborat onomastik terminosistemaning markaziy tushunchasi sifatida qayd etilgan [11], biroq o'zbek tilshunosligida bu terminning muqobili hali leksikografik jihatdan mustahkamlanmagan [2].

Ushbu maqolaning maqsadi – “onim” terminining turli ilmiy yondashuvlardagi ta'riflarini tizimli tahlil etish va bu tahlil asosida o'zbek onomastik terminologiyasi uchun eng maqbul umumlashgan ta'rifni aniqlashdir. Tadqiqot vazifalari: 1) “onim” terminiga oid asosiy yondashuvlarni aniqlash va tasniflash; 2) har bir yondashuvning kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatib berish; 3) umumlashgan ta'rif taklif etish va uni o'zbek terminologiyasiga moslash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Onim” tushunchasini tadqiq etishda ikki asosiy an'anaviy yondashuv mavjud: g'arb falsafiy-mantiqiy va sovet-rus terminologik yondashuv. G'arb an'anaviy yondashuvida J.S.Mill “A System of Logic” (1843) va G.Frege “Über Sinn und Bedeutung” (1892) asarlarida atoqli otga oid falsafiy muammolarni birinchi marta aniq ilmiy tarzda ifodaladilar [6], [7]. B.Russell (1905) esa o'zining “yagona ta'riflar” nazariyasida atoqli otlarning mantiqiy holatini yanada chuqurlashtirib asosladi [9].

Sovet-rus an'anaviy yondashuvida markaziy o'rinni A.V.Superanskayaning “Atoqli otlarning umumiy nazariyasi” (1973) va N.V.Podolskayaning tizimli lug'ati (1978, 1988)

egallaydi [11], [12]. Superanskaya referensial yondashuvni asoslashtirdi; Podolskaya esa bu asosda operatsion ta'rif tuzdi. Chex tilshunosi V. Blanar (1996) kommunikativ o'Ichamni ishlab chiqdi [3], niderland tilshunosi Van Langendonsk (2007) esa atoqli otlarning tipologik tahlilini amalga oshirdi [14].

O'zbek tilshunosligida onomastik terminologiya masalalari E.Begmatov (1991) va A.Hojiyev (2002) asarlarida ko'rib chiqilgan [2], [5]. Biroq bu asarlarda "onim" terminining tizimli tahlili amalga oshirilmagan. Terminologiya nazariyasi sohasida S.V.Grinev-Grinevich (2008) va V.A.Tatarinov (1996) asarlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [8] [13].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda induktiv yo'nalish tanlandi, xususiy yondashuvlardan umumiy ilmiy xulosalarga o'tish amalga oshirildi. Uchta asosiy metod qo'llanildi: 1) qiyosiy-tarixiy metod – "onim" terminining turli tarixiy davrlardagi ta'riflar solishtirildi; bu metod yordamida har bir yondashuvning paydo bo'lish tarixi va ilmiy konteksti aniqlanib, ularning o'zaro munosabati ko'rsatildi; 2) tasnifiy metod – yondashuvlar falsafiy, mantiqiy, grammatik, referensial, leksikografik, kommunikativ va terminologik guruhlarga ajratildi; 3) tavsiflash metodi – har bir ta'rifning asosiy xususiyatlari bayon etildi.

Tadqiqot obyekti bo'lib 1843-2008 yillar orasida nashr etilgan 15 ta asosiy terminologik va onomastik asarlar xizmat qildi. Birlamchi manbalari sifatida lug'atlar va monografiyalar, ikkilamchi manbalari sifatida esa www.scholar.google.com tizimidan topilgan jurnal maqolalaridan foydalanildi. Tadqiqotning ishonchliligi bir nechta mustaqil manba asosida ta'minlandi; aniqligi esa ta'riflarni bevosita asosiy manbalarda tekshirish orqali amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. 1. Falsafiy yondashuv (J.S. Mill, 1843)

"Onim" tushunchasiga ilk ilmiy yondashuv J.S. Millning "A System of Logic" (1843) asarida keltirilgan. Mill atoqli va turdosh ot o'rtasidagi fundamental farqni birinchi marta aniq shaklda ifodaladi: atoqli ot narsaning tavsifi haqida ma'lumot bermaydi, balki faqat uni boshqa otlardan ajratish uchun xizmat qiladi [6]. Mill "konnotatsiya" (ma'no) va "denotatsiya" (bildirish) o'rtasidagi farqni asoslashtirdi. Bu ta'rif keyingi barcha muhokamalar uchun metodologik zamin yaratdi. Bu yondashuvning kamchiligi shundaki, u lingvistik va kommunikativ o'Ichamlarni chetda qoldiradi.

2. Mantiqiy yondashuv (G. Frege, 1892; B. Russell, 1905)

G. Frege (1892) "Über Sinn und Bedeutung" asarida "onim"ga oid mantiqiy muammoni keskin qo'ydi: "Veneraning ertalabki yulduzi" va "kechki yulduzi" – bu ikki ifoda ham bir xil ma'no obyektini (Bedeutung) belgilaydi, ammo turli ma'nolarga (Sinn) ega [7]. Bu kuzatuv onomastikada "sinonimiya" muammosi uchun nazariy zamin yaratdi. B. Russell (1905) esa "yagona ta'riflar" nazariyasida atoqli otlar maxsus mantiqiy qurilmalar ekanligini ko'rsatdi [9]. Bu yondashuvning kamchiligi shundaki, u grammatik va leksikografik tomonlarni hisobga olmaydi.

3. Grammatik yondashuv (A.A. Reformatskiy, 1967)

"Onim" terminiga ta'rif berishda asosiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili

№	Yondashuv	Olim	"Onim" ta'rif	Asosiy mezon
1	Falsafiy	J.S.Mill (1843)	predmetni nomini bildiruvchi, lekin uning xususiyatlarini anglatmaydigan nom	bildirish
2	Mantiqiy	G.Frege (1892)	ma'no (Sinn) va ma'no obyektini (Bedeutung) ga ega birlik	ma'no
3	Grammatik	A.A.Reformatskiy (1967)	bir guruhga emas, alohida shaxs, joy, narsaga tegishli so'z	grammatik guruh
4	Referensial	A.V.Superanskaya	Muayyan obyektini boshqalardan ajratib ko'rsatish	Individual

Rus tilshunosligida grammatik yondashuv A.A.Reformatskiyning "Введение в языковедение" ("Tilshunoslikka kirish") (1967) asari bilan bog'liq. Uning ta'rificha, atoqli ot – "bir guruhda emas, balki alohida shaxs, joy yoki narsaga tegishli so'z turidir [10]. Bu ta'rif aniq va qulay, ayniqsa pedagogik maqsadlar uchun keltirilgan. Hozirgi kunda o'quv qo'llanmalarining aksariyatida aynan shu ta'rif qo'llaniladi. Bu yondashuvning kamchiligi shundaki, unda tushunchaning semantik va pragmatik tomonlari ochib berilmaydi.

4. Referensial yondashuv (A.V. Superanskaya, 1973)

Referensial yondashuv A.V.Superanskayaning "Общая теория имени собственного" (1973) asarida to'liq ishlab chiqildi [12]. Superanskayaning ta'rifiga ko'ra, onim – "muayyan obyektini boshqalardan ajratib ko'rsatish uchun berilgan nom; u narsaning kategoriyasini emas, balki o'zini bildiradi". Bu ta'rif "individual referensiya"ni asosiy mezon sifatida belgiladi va hozirgi rus onomastikasida eng muhim ta'rif maqomini saqlamoqda. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, uning semantik jihatdan chuqurligi va universal qo'llanilish imkoniyatidir.

5. Leksikografik yondashuv (N.V.Podolskaya, 1988)

Leksikografik yondashuv N.V.Podolskayaning "Словарь русской ономастической терминологии" ("Rus onomastik terminologiyasi lug'ati") (1988) asarida gavdalandi [11]. Podolskaya "onim"ni shunday ta'rifladi: "'Onim" – leksik ma'nosi yo'q, referensial xususiyatga ega va individual obyektini belgilaydigan til birligidir". Bu ta'rif onomastik terminosistemaning operatsion asosiga aylandi: "antroponim", "toponim", "gidronim" va boshqa barcha 514 ta termin shu ta'rif asosida giponim sifatida qurilgan [8]. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, uning aniqligi va terminosistema qurishga yaroqligidir.

6. Kommunikativ yondashuv (V. Blanar, 1996)

Chex tilshunosi V. Blanar (1996) "onim"ga kommunikativ nuqtai nazardan yondashdi: "onim – nutq hodisasi sifatida onomastik kategoriya; u tilga emas, balki nutqqa asoslangan onomastik kategoriyadir" [3]. Bu yondashuv onomastikani pragmatika va diskurs tahlili bilan bog'ladi. Keyinchalik Van Langendonsk (2007) kommunikativ yondashuvni tipologik tahlil bilan uyg'unlashtirdi [14]. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, u onimning nutqdagi real funksiyasini hisobga oldi.

7. Terminologik yondashuv (S.V.Grinev - Grinevich, 2008)

Terminologik yondashuv S.V.Grinev-Grinevich tomonidan (2008) tizimlashtirilib, "onim" termini onomastik terminosistemaning "markazi" va boshqa barcha onomastik terminlarning giperonimi sifatida talqin etildi [8]. Bu yondashuv "onim"ni izolyatsiyada emas, balki tizimli kontekstda: "onim" → "antroponim" → "erkak ismi" / "ayol ismi" kabi iyerarxik munosabatlar tizimi orqali ko'rib chiqadi. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, uning "onim" va unga bog'liq barcha terminlar o'rtasidagi munosabatlarni yaqqol ko'rsatish imkoniyatidir.

Quyida keltirilgan yondashuvlarga ko'ra, biz ushbu yondashuvlarni qiyosiy tahlili jadvalini tuzdik:

№	Yondashuv	Olim	“Onim” ta’rifi	Asosiy mezon
		(1973)	uchun berilgan nom	referensiya
5	Leksikografik	N.V.Podolskaya (1988)	leksik ma’nosi yo’q, referensial xususiyatga ega til birligi	operatsional ta’rif
6	Kommunikativ	V. Blanar (1996)	nutqqa asoslangan onomastik kategoriya	nutq
7	Terminologik	S.V.Grinev-Grinevich (2008)	terminosistemaning markazi; barcha onimlarning giperonimi	tizim

Manba: Mill (1843), Frede (1892), Reformatskiy (1967), Superanskaya (1973), Podolskaya (1988), Blanar (1996), Grinev-Grinevich (2008) asoslari bo’yicha muallif tomonidan tuzildi.

Xulosa va takliflar. O’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, “onim” terminiga oid yettita yondashuv mavjud bo’lib, ularning har biri tushunchaning muayyan jihatini ochib beradi: falsafiy yondashuv bildirish va ma’no anglatishni farqlaydi; mantiqiy yondashuv ma’no va ma’no obyekt o’rtasidagi munosabatni oydinlashtiradi; grammatik yondashuv pedagogik nuqtai nazardan qulaydir; referensial yondashuv individual referensiyani asosiy mezon sifatida

belgilaydi; leksikografik yondashuv operatsion ta’rif beradi; kommunikativ yondashuv pragmatik o’lchamni qo’shadi; terminologik yondashuv “onim”ni tizim kontekstida ko’rib chiqadi [8], [12].

Tahlil natijalariga asoslanib, o’zbek onomastik terminologiyasini tartibga solish uchun quyidagi yaxlit ilmiy ta’rifni tavsiya etish mumkin: “Onim – leksik ma’nosi bo’lmagan, referensial xususiyatga ega va alohida obyekt (shaxs, joy, hodisa va boshqalar) ni belgilaydigan, nutqda kommunikativ vazifani bajaradigan til birligidir”. Bu ta’rif referensiya (Superanskaya), leksikografik (Podolskaya) va kommunikativ (Blanar) yondashuvlarini umumlashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2022. – 288 b.
2. Берматов Э.А. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Тошкент: Фан, 1991. – 184 б.
3. Blánar V. Proper Name in the Light of Theoretical Onomastics. – Bratislava: Slovak Academy of Sciences, 1996. – 243 p.
4. Frege G. Über Sinn und Bedeutung // Zeitschrift für Philosophie und philosophische Kritik. – 1892. - Bd. 100. – S. 25–50.
5. Хожиев А.П. Ўзбек тили терминологияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 212 б.
6. Краснин В.В. Структура языкового сознания: концепт, фрейм, система. – М.: Диалог-МГУ, 1997. – 156 с.
7. Mill J.S. A System of Logic, Ratiocinative and Inductive. – London: John W. Parker, 1843. – 622 p.
8. Гринев-Гриневи́ч С.В. Терминоведение. – М.: Академия, 2008. – 304 с.
9. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. –1-е изд. –М.: Наука, 1978. – 200 с.
10. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: Просвещение, 1967. –544 с.
11. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – 2-е изд., перераб. и допол. – М.: Наука, 1988. – 192 с.
12. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – 366 с.
13. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы теории. – М.: Наука, 1989. – 246 с.
14. Татаринов В.А. Общее терминоведение. –М.: Московский лицей, 1996. – 311 с.
15. Van Langendonck W. Theory and Typology of Proper Names. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2007. – 378 p.
16. Russell B. On Denoting // Mind. – 1905. – Vol. 14, № 56. -P. 479-493.